

**MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERI KORXONALARI FAOLIYATIDA
BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Mannopova Muazzam Sultanbekovna

Farg‘ona davlat universiteti,

Jahon va mintaqalari iqtisodiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ В
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ПЛОДООВОЩНОГО КЛАСТЕРА**

Маннопова Муаззам Султанбековна

старший преподаватель кафедры мировой и региональной экономики

Ферганского государственного университета.

**IMPROVING MANAGEMENT MECHANISMS IN THE ACTIVITIES
OF FRUIT AND VEGETABLE CLUSTER ENTERPRISES**

Mannopova Muazzam Sultanbekovna

senior lecturer at Fergana State University,

Department of world and regional economics.

Annotatsiya.

Maqlada respublikamizda qishloq xo‘jaligida meva-sabzavotchilik yo‘nalishidagi klasterlarining rivojlantirish va klaster tuzilmalarini boshqarishning maqsadlari va vazifalari yoritilgan. Qishloq xo‘jaligida meva-sabzavotchilik yo‘nalishidagi klasterlarini rivojlantirish, ularni boshqarish va asosiy muammolari bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar. Qishloq xo‘jaligi, eksport, texnologiya, ishlab chiqarish, meva-sabzavotchilik, maxsulot, klaster, innovatsiya, resurs, agrar soha.

Iqtisodiyot tarmoqlarini klasterlash mamlakatimiz milliy va mintaqaviy raqobatbardoshilagini oshirishning asosiy omili sifatida zamonaviy iqtisodiyotni intensiv rivojlantirishning muhim yo‘nalishiga aylanmoqda. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan: «...agrobiznesning klaster modelini keng joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, klasterlash jarayonining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish» muhim vazifalar sifatida belgilandi.

Meva-sabzavot klasterlari quyidagi vazifalarni o‘zida mujassamlashtiradi:

– meva- sabzavot mahsulotlari etishtirish, saqlash, qayta ishslash va sotishga chuqur ixtisoslashish;

–meva-sabzavot mahsulotlarini etishtirish, qabul qilish, tozalash, saralash, quritish hamda qayta ishslashda yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish;

–yer maydonlaridan foydalanish: ajratilgan yer maydonlaridan samarali va unumli foydalanish, maydonlarga sifatli, jahon andozalariga mos eksportbop meva, uzum va sabzavot ekinlarni joylashtirish, samarasiz va istiqbolsiz qishloq xo‘jalik ekinlari o‘rniga bosqichma-bosqich meva, uzum va sabzavot ekinlari joylashtirish;

–meva-sabzavot maxsulotlarini yetishtirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, ulardan mintaqa va hududiy sharoitlarda keng foydalanish, meva-sabzavotchilik sohasiga xorijiy mutaxassislarini jalg‘ qilish;

–eksportga yo‘naltirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish, ularning seleksiyasi va urug‘chilagini klaster hududlarida o‘zlashtirish, rivojlantirish, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

–serhosil meva, uzum va sabzavot ekinlarini ekish, mahsulot etishtirish, saqlash, qayta ishslash va sotish jarayonini to‘liq qamrab oluvchi tizimni shakllantirish, shuningdek zamonaviy innovatsion, resurs tejamkor texnologiyalarni meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish jarayonlariga joriy qilish;

–malakali yangi ish o‘rinlarini tashkil etish.

Ayni paytda o‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda meva-sabzavot klasterlari “Mustaqil”, “Tayyorlov-qayta ishslash” va “Aralash” shakllarida tashkil etilganini ko‘rsatadi. Hozirgi davrda Respublikamizda 11 ta “Mustaqil”, 16 ta “Aralash” va 120 ta “Tayyorlov-qayta ishslash” klasterlari faoliyat ko‘rsatmoqda. “Mustaqil klasterlar” o‘ziga ajratilgan er maydonlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash, qayta ishslash, saqlash, saralash va transportda tashish, sotish hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa ob’ektlar majmuasidan iborat infratuzilmaga ega bo‘ladi. O‘rtacha bitta klasterga 664,5 hektar er maydoni to‘g‘ri keladi. Mustaqil meva-sabzavot klasterlari joylashgan hududlaridagi mavjud meva-sabzavot maydonlarini 6-45 foizni qamrab olingan. Meva-sabzavotchilik klasteri tarmoq ixtisosligi bo‘yicha bir tarmoqli (bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik yoki issiqxona komplekslari yo‘nalishlaridan biri) va ko‘p tarmoqli (bittadan ortiq yo‘nalishlarga ega bo‘lgan) ixtisoslashuvlarga ajratiladi. O‘zbekistonda meva-sabzavotchilikni jadal va innovatsion rivojlantirish uchun meva-sabzavot klasterlarini ikkita yo‘nalishda shakllantirish joriy etilmoqda:

- birinchi yo‘nalish - meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishdan to sotishgacha bo‘lgan belgilangan jarayonni mustaqil ravishda amalga oshiruvchi yagona yoki o‘zaro bog‘liq korxonalar guruhi doirasida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish klasteri;

- ikkinchi yo‘nalish – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga qishloq xo‘jaligi yumushlarini tashkil qilish uchun ekish materiali, avans to‘lovlarini taqdim etuvchi

va ulardan ishlab chiqarilgan mahsulotni kelishilgan narxlarda sotib oluvchi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari, tayyorlovchi korxonalar, qayta ishlovchilar, eksport qiluvchilar o‘rtasida kafolatlangan shartnomalar asosida “urug” –ko‘chat –mahsulot etishtirish –tayyorlash –saqlash –qayta ishlash –transportirovka qilish –bozorga etkazish” tamoyili bo‘yicha uzlusiz zanjirni shakllantiradigan meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish klasteri.

Respublikamizda 147 ta meva- sabzavot klasteri ichida aralash shaklda faoliyat ko‘rsatayotgan klasterlarni yer maydoni, mahsulotlar ishlab chiqarish, meva-sabzavot klasterlari joylashtirilgan hududlarni qamrab olish darajasi, biriktirilgan fermer xo‘jaliklari soni, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ichki iste’molga, qayta ishlash va eksportga yo‘naltirish hajmi bo‘yicha mustaqil va tayyorlov qayta ishlash klasterlariga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston mintaqalarida raqobatli va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida, hududlarning ijtimoiy –iqtisodiy rivojlanishining asosi bo‘ladigan, tabiiy shart –sharoitlar va geografik xususiyatlarni, ana’naviy shakllangan samarali faoliyat ko‘rsatadigan xo‘jalik yuritish mexanizmlarini, mavjud infrastrukturalar va tarixan shakllangan ishlab chiqarishni hisobga olish kerak bo‘ladi. Shu bilan birga, meva –sabzavot klaster tarkibiga kiradigan qishloq xo‘jaligi korxonalarini raqobatli ustunliklari shakllantiriladi, eng muhimi, moslashuvchanlik va bozordagi barcha o‘zgarishlarga tezda javob berish imkoniyatlari oshib boradi. Shuningdek, qishloq xo‘jalik tarmoqlarini klasterlashtirish kapital va texnologiyalar oqimini, to‘g‘ridan- to‘g‘ri investitsiyalarni oshishiga imkon beradi, natijada hududga moliyaviy vositalardan tashqari, yangi innovatsion texnologiyalar, intellektual resurslar, boshqaruv ko‘nikmalarini olib keladi. Asosan, meva-sabzavot tizimi klasterlarini boshqarish tizimi o‘z xususiyatiga ko‘ra ko‘pgina korxonalarni o‘z ichiga olgan korxonalar birlashmalari, boshqaruv ob’ekti mustaqil o‘zaro aloqada bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning faoliyati bo‘lib, ularning har biri o‘z funksiyalarini yaxlit tuzilmada bajarishiga e’tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, boshqaruv ob’ekti ushbu sub’ektlar o‘rtasida o‘rnatalgan aloqalardan tashkil etgan bo‘lib, klaster sub’ektlari o‘rtasidagi munosabatlar umumiyligi maqsadlarga erishish uchun ixtiyoriy ravishda o‘rnataladi. Bunda umumiyligi maqsadlar sifatida, quyidagilarni ta’kidlash mumkin: raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, logistika xarajatlarini kamaytirish, tadqiqot usullaridan keng foydalanish kabilardan tashkil topadi.

Asosan boshqaruv- bu chora-tadbirlar, usullar va o‘z maqsadlariga erishish uchun firmalararo integratsiya sub’ektlarining o‘zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarini shakllantirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish imkonini beradigan vositalar ta’sirini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Qolaversa, faoliyati endi yo‘lga qo‘yilayotgan klaster tuzilmalari uchun, strategik maqsadlar

quyidagicha belgilanadi: -klaster yondashuvini ommalashtirish; -klaster sub'ektlari o'rtasidagi muloqotni kengaytirish,- investitsiyalarni jalb qilish; - fan, ta'lim, marketing va savdo kabilar hamkorligini rag'batlantirish.

Rivojlanish bosqichidagi klaster tuzilmalari uchun asosiy maqsadlar sifatida quyidagilarni kiritish mumkin: -tadbirkorlik subektlarini qo'llab-quvvatlash ; - moliyalashtirishning yangi manbalarini jalb qilish; -klaster doirasida texnologiyalarni tarqatish va qo'shma innovatsion faoliyatni rivojlantirish; -klaster ishlab chiqarish xajmini kengaytirib borishdan iboratdir.

Xaqiqiy klaster birlashmalarida tashkil etilgan va rivojlangan hamkorlik munosabatlari strategik alternativ yo'l hisoblanib, ularni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsaga muvofiqir: - klasterning umumiy biznes infrastrukturasi yaratish; - tashqi aloqalarni rivojlantirish va chet el investitsiyalarni jalb qilish; -hamkorlikdagi innovatsion faoliyatni amalga oshirishdir.

Shuningdek, klasterlar aloqalarini va hamkorlikni shakllantirishda maqsadliligi va ustuvorligiga qaragan holda, mahalliy rivojlantirish dasturlari ularni kengaytirish va yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Yuqoridagilardan tashqari, mamlakatimizda ayni paytda tarmoq klasterlarini shakllantirish muammolari bo'yicha tadqiqotlar yetarli emasligi, klasterlar faoliyatining nazariy va tashkiliy-uslubiy asoslari yaxlit tizim sifatidagi shakllanib ulgurmaganligi hal qilinishi lozim bo'lgan asosiy masalalardan biridir. Jumladan, mintaqaviy tarmoq klasterlarini shakllantirish bilan bog'liq normativ-huquqiy, tashkiliy-texnologik, moliyaviy-iqtisodiy va boshqa masalalar ham o'zining echimlarini kutmoqda. Hozirgacha mintaqa darajasidagi klasterlar samaradorligini baholashga yagona, tan olingan uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish ham maqsadga muvofiq bo'lib, ular esa klasterlarni boshqarish samaradorligiga katta xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Mannopova, M. S. (2018). Turizm yo`nalishida ta`lim berishning o`ziga xos xususiyatlari. *Бухоро вилоятининг туристик ва инвестицион салоҳияти ҳалқаро илмий-амалий конференция материалари*, 1(6), 307-310.
2. Маннопова, М. С. (2019). Хорижий мамлакатларда аҳоли бандлигини таъминлашнинг моделлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари. *Европа Иттифоқи Erasmus+дастурининг MAGNET – Университетлар Ўзбекистонда ўрта ёши аҳолини ўқитиши ва касбга тайёрлаш марказларининг асосий ҳамкори*, 1(5), 150-151.
3. Маннопова, М. С. (2019). Инвестиция бу мамлакат драйвери – истиқболли иқтисодиётнинг кафолатидир. *Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожлантиришининг долгарб масалалари. Ҳалқаро илмий-амалий конференция илмий мақолалар ва материаллари тўплами*. Андижон, 1(7), 106-109.

4. Маннопова, М. С. (2019). Кластеры-как драйвер экономики. *II-Международная научно-практическая конференция Аграрная экономика в условиях глобализации и интеграции ВНИОПТУСК.* г.Москва, 1(9), 23-25.
5. Маннопова, М. С. (2020). Фарғона вилоятида мева-сабзавотчилик соҳасида эришилган ютуқлар ва камчиликлар. *Фарғона вилоятини инновацион ривожлантириши: муаммолар ва ечимлар мавзусидаги республика шлмий-амалий конференция материаллари Фарғона,* 1(6), 124-127.
6. Маннопова, М. С. (2019). Озиқ-овқат саноати равнақининг беқиёс аҳамияти. *Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси,* 1(1), 44-47.
7. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистонда мева-сабзавотчилик йўналишидаги кластерларни ривожлантириш ва бошқаришнинг асосий вазифалари. *Biznes-эксперт,* 1(6), 48-52.
8. Халматжанова, Г. Д., & Маннопова, М. С. (2020). РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ С УЧЁТОМ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХҮҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 238-244).
9. Khalmatjanova, G. D., & Mannopova, M. S. (2021). Priority areas in agricultural development in the Republic of Uzbekistan. In *The Challenge of Sustainability in Agricultural Systems: Volume 1* (pp. 49-54). Cham: Springer International Publishing.
10. Маннопова, М. С. (2019). Основные проблемы в сфере переработки плодоовошной продукции в Республике Узбекистан. *Образование и наука в России и за рубежом,* (16), 175-180.
11. Маннопова, М. С., & Абдуллаева, Ш. Э. (2021). Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини диверсификациялаш жараёнида мева-сабзавот кластерларини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятларини. *Экономика и социум,* 10, 89.
12. Mannopova, M. C. (2020). РАЗВИТИЕ КЛАСТЕРОВ В ПЛОДООВОЩНОМ НАПРАВЛЕНИИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ИХ ФУНКЦИИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХҮҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 320-324).
13. Маннопова, М. С., & Хасанов, И. М. (2020). РАЗВИТИЕ ИНВЕСТИЦИЙ-ГАРАНТИЯ ПЕРСПЕКТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХҮҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 301-306).
14. Mannopova, M. S., & Khalildinov, A. A. (2022). THE IMPORTANCE OF THE EFFECTIVE USE OF FRUIT VEGETABLE CLUSTERS IN AGRICULTURE OF UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.,* 29, 117-120.

15. Mannopova, M. S. (2022). Main Directions of Development of Fruit and Vegetable Clusters in Agriculture of Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 106-109.
16. Mannapova, M., & Abdullayeva, S. (2022). THE WORK DONE AND THE DESIGNATED TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF FRUIT AND VEGETABLE CLUSTERS IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 1126-1129.
17. Абдуллаева, Ш. Э., & Маннопова, М. С. (2022). Основные направления развития и управления плодовоовощными кластерами. *Ta'lim fidoyilari*, 6(7), 507-512.
18. Abdurahimovna, C. D., & Sultanbekovna, M. M. (2022). Cost and Accounting Concepts in Accounting and Their Accounting. *Global Scientific Review*, 4, 21-26.
19. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистон қишлоқ хўжалигига мева-сабзавотчилик кластерларини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари. *New innovations in national education*, 1(6), 12-16.
20. Маннопова, М. С. (2022). Жаҳон мамлакатларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг самарали ёндошувлари. *New innovations in national education*, 1(6), 4-11.
21. Юлдашева, Г. А., & Абдуллаева, Ш. Э. (2021). Инновации в рамках национальных инновационных систем. *Интернаука*, (26), 6-8.
22. Abdullaeva, S. E. (2021). The urgency of attracting investment to banks. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 435-440.
23. Абдуллаева, Ш. (2020). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 506-512).
24. Абдуллаева, Ш. Э., & Жакбарова, З. С. (2020). РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 345-350).
25. Абдуллаева, Ш. Э. (2019). Современное состояние и перспективы развития банковской системы в Узбекистане. *Образование и наука в России и за рубежом*, (16), 180-182.
26. Khakimov, D. R., Kurbanov, D., & Khalildinov, A. A. (2022). Formation of New Economic Mechanisms in the Field of Education. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 76-81.

27. Raximov, D. S. (2022). DIRECTIONS OF DIVERSIFYING INNOVATION PROCESSES IN THE INDUSTRY NETWORK. *World Economics and Finance Bulletin*, 16, 107-110.
28. Khakimov, D. R., Khalildinov, A. A., & Abdullaeva, S. E. (2022). THE MAIN FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF MARKET RELATIONS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 94-100.
29. Қурбонов, Д. Х. (2022). Олий таълим соҳосида бозор муносабатлари ривожланишининг асосий омиллари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 39-41.
30. Khalildinov, A. A., & Ashurov, S. S. (2022). The Importance of Rational Use of Natural Resources in the Economy and Specific Features of its Management. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 82-85.
31. Халилдинов, А. А. (2021). Иқтисодиётни рақамлаштиришда инновациялар. *Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар*, 1(6), 296-301.
32. Халилдинов, А. А. (2021). Инвестиция сиёсатининг асосий йўналишлари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 146-150.
33. Хакимов, Д. Р. (2022). Олий таълим тизимида янги иқтисодий механизmlарни шакллантириш. *Biznes-эксперт*, 1(6), 34-39.
34. Халилдинов, А. А. (2023). КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Journal of new century innovations*, 21(2), 87-96.